

**ODDIY SHAFTOLI (*PERSICA VULGARIS*) NING FARMAKOLOGIK XOSSALARI****Abdumuminova R.N***Samarqand davlat tibbiyot universiteti xodimi¹,***Shaydullayeva M. X****Toshtemirova K.E***Ishtixon Abu Ali Ibn Sino Jamoat salomatlik tezhnikumi xodimlari²*

Annotasiya Hozirda dunyo miqyosida zamonaviy tibbiyotda shaftoli komponentlaridan xom ashyo sifatida foydalanilmoqda, mualliflar tomonidan yozilgan ushbu maqola shaftolining aynan dorivor va shifobaxsh xususiyatlarini hisobga olgan holda 2019-2021 yillarda Samarqand viloyati hududida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shunga ko'ra, shaftolidagi biologik faol moddalarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xossalari, taninlar, karotinoidlar, askorbin kislotasi, flavonoidlar kabi dorivor xususiyatlarni tadqiq etish asosida, shaftoli barglari quyuc ekstraktini tayyorlash standarti ishlab chiqilgan hamda hom ashyo sifatida yallig'lanishga qarshi faolligi, antioksidant faolligi va boshqa bir qancha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan shifobaxsh hususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar olingan. Tajriba natijalaridan olingan ma'lumotlarga statistik qayta ishlov berilib maqolaning mazmun nohiyati yanada boyitilgan.

Dolzarbli. Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika sohasida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining deyarli asosiy qismi dorivor o'simliklar xom ashyosidan tayyorlanmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 80 foizi dorivor o'tlar asosidagi mahsulotlardan foydalanadi. Rivojlangan mamlakatlarda dorivor o'simliklar an'anaviy tibbiyot tizimlari, zamonaviy dori-darmonlar, preparatlar, oziq-ovqat qo'shimchalari, xalq tabobati, farmatsevtik oraliq mahsulotlar va sintetik dorilar uchun kimyoviy moddalarning eng boy bioresursi hisoblanadi.

Shunday o'simliklardan biri shaftoli o'simligi bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra vatani Osiyo ya'ni Xitoy mamlakati hisoblanadi. Bu o'simlik asosan xushbo'y mevasi uchun yetishtiriladi. Lekin hozirgi kunda tibbiyot sohasida uning shifobaxshligi uchun uni yetishtirishni ko'paytirish tavsiya etilmoqda. Tibbiyot olamining sultoni Abu Ali Ibn Sino ham shaftoli o'simligining guli, bargi, mevasidan xalq tabobatida juda ko'p kasalliklarni davolagan, jumladan: ayollarda uchraydigan mastit, bachadon kasalliklari, otit, migren, qon-tomir kasalliklari hamda gijjalarga qarshi foydalangan bo'lib, o'zining mashhur Tib qonunlari asarida yozib qoldirgan. Dunyo miqyosida Ibn Sinoning ushbu asari tibbiyot sohasidagilar uchun dasturul amal bo'lib hizmat qilib kelmoqda.

Olingan natijalar va metodologiya. Ilmiy adabiyotlarda oddiy shaftolidan kuchsizlantiruvchi, tinchlantiruvchi va saratonga qarshi vosita sifatida foydalanish qayd etilgan. Shaftoli barglarining suvli ekstrakti gipoglikemik ta'sir ko'rsatadi,



ingichka ichakda glyukoza so'rilishini kamaytirish orqali ovqatdan keyin qondagi glyukoza darajasini pasaytiradi. Ekstraktning gepatoprotektiv ta'siri fenolik birikmalar, ya'ni flavonoidlar ta'siri bilan bog'liq. Ma'lumki, shaftoli o'simlik preparatlari immunitet tizimini rag'batlantiradi, himoya hujayralarining fagotsitik faolligini oshiradi va antitelalar ishlab chiqarishni oshiradi.

O'RVIning oldini olish uchun shaftoli barglari ekstrakti tavsiya etiladi. Shaftoli ekstrakti ginekologik kasalliklarga nisbatan ham yuqori samaradorlikni namoyish etadi. Mastopatiya, miyomatoz tugunli kasalligini og'riqli va og'ir davrlarida shaftoli preparatlarini qabul qilish uchun ko'rsatma berish mumkin.

Bundan tashqari, shaftolida flavonoid kompleksi adaptogen bo'lib, jismoniy ish faoliyatini, stressga chidamliligini va asabiy taranglikni yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oddiy shaftoli barglaridan olingan polifenolli o'simlik preparatlari neytrofillar va makrofaglarning fagotsitik faolligini oshiradi, antitelalarning faol ishlab chiqarilishiga yordam beradi, T-limfotsitlar sonini ko'paytiradi, ya'ni immun tizimini rag'batlantiradi.

Shaftoli bargidan olingan preparatlar, shuningdek, mevalarning o'zi ham antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, yoshga bog'liq o'zgarishlarga olib keladigan erkin radikallarning organizmdan tozalaydi.

Oddiy shaftoli barglarining polifenol birikmalarining o'smaga qarshi faolligi isbotlangan. Onkologiya markazi (Moskva) olimlari N.N. Blokhin va boshqalar sichqonlar ustida tajribalar o'tkazdilar, tajribalar natijalariga ko'ra, shaftoli bargi ekstraktidan tayyorlangan mahsulot hatto xavfli o'sma ham o'sishini ham to'xtatdi. III-IV bosqichdagi onkologik bemorlarda ham tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada, shaftoli asosidagi dori-darmonlarni qabul qilgandan so'ng og'riq sindromlari sezilarli darajada kamaydi va yo'qoldi shuningdek, kimyoterapiyadan keyin tananing umumiy holati yaxshilandi. Shaftoli mevalarining urug'lari (mag'zi) o'smaga qarshi xususiyatlarga ega. Ginekologik amaliyotda shaftoli asosidagi dori vositalarining samaradorligi eksperimental tarzda aniqlangan. Ularni qabul qilgandan keyin 3-5 oy o'tgach, ayollarda mastopatiya belgilari, adenomiyoz yo'qolgan, hayz davri normallashtgan.

Shaftoli qondagi gemoglobinni oshirishga yordam beradi va anemiyani davolash uchun yaxshi vosita hisoblanadi, chunki olma mevasiga qaraganda shaftolida temir moddasi ikki baravar ko'p. Prostata kasalliklari, sil, disbakterioz, kon'yunktivit, periodontal kasallik, stomatitni davolashda shaftoli yog'iga asoslangan preparatlarning ijobiy ta'siri mavjud. Shaftoli mevalari tarkibidagi faol komponentlar stressning tanaga salbiy ta'sirini kamaytiradi, immunitetning buzilishiga olib keladigan toksinlarning ta'sirini cheklaydi.

Stress yoki dipressiyada 1-2 ta shaftoli iste'mol qilish tavsiya etilgan. Bu shaftoli tarkibida B vitaminlari kompleksi borligi bilan bog'liq: B₁, B₂, B₃, B₄, B₅, B₆ va B₉ va magniy. Shaftoli tarkibidagi uglevodlar kayfiyatni ko'taradi: 100 gramm shaftolida 8,4 gramm shakar bor, ular shaftoli tarkibida oziq-ovqat kletchatkasi va pektin borligi sababli sekin so'riladi. Ammo shunga qaramay, qandli diabetga chalinganlar ehtiyot



bo'lishlari va qancha shaftoli yeyish mumkinligi haqida shifokor bilan maslahatlashishlari kerak. Shaftoli kayfiyatga ta'sir ko'rsatadi va ovqat hazm qilish trakti faoliyatini normallashtiradi.

Shaftoli pektin va kletchatkaga boy, shuningdek, uning tarkibida probiotiklar mavjud. Bu komponentlar ichak mikroflorasini yaxshilaydi va oziqlantiradi, toksinlardan tozalaydi. Shuningdek, pektin ortiqcha yog'larni, triglitseridlarni va «yomon» xolesterinni yo'q qiladi. Shuningdek, shaftoli homiladorlik paytida toksikoz alomatlarini kamaytirishi mumkin. Ammo oshqozon-ichak kasalliklari: gastrit, oshqozon yarasi bor bemorlarga shaftoli yeyish tavsiya qilinmaydi. Bundan boshqa kasalliklarda shaftoli yeyish taqiqlanmaydi. Chunki bu meva oshqozon shilliq qavatini bezovta qilmaydi, hatto yuqori kislotalilikka ega odamlar ham iste'mol qilishi mumkin.

Shaftoli tarkibida juda ko'p kaliy elementi bor: bitta shaftolida taxminan 333 mg kaliy mavjud bo'lib, u organizm uchun bebahodir. Kaliy mushaklar qisqarishini tartibga soladi, qon bosimini normallashtirish, yurakning barqaror ishlashi uchun kerak. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, shaftoli tarkibida magniy mavjud bo'lib, u ateroskleroz, insult va infarkt rivojlanishining oldini oladi. Shaftoli tarkibida ko'p bo'lgan fosfor qon tomirlari devorlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, mazkur meva tarkibidagi temir va K vitamini qon ivishi, gemoglobin darajasini tartibga solib, kamqonlikning oldini oladi.

Shaftoli — osteoporoz, artrit va artroz, shuningdek, tish zararlanishining davosi hisoblanadi, chunki 100 gramm mevada 6 mg kalsiy bor. Yuqorida aytganimizdek, meva tarkibida magniy bor, bu esa kalsiy so'rilishini rag'batlantiradi, fosfor esa tish va suyak to'qimalari uchun foydalidir. Bundan tashqari, fosfor miya va mushaklar faoliyati uchun zarur modda. C vitamini va rux kollagen ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, bu biriktiruvchi to'qima, bo'g'im, suyak va tishlar salomatligini ta'minlaydi.

Xulosa. 1. Adabiy manbalarni o'rganish natijasida oddiy shaftoli barglari biologik faol moddalarning boy tarkibiga ega ekanligi aniqlandi.

2. Oddiy shaftoli xorijda ham, O'zbekistonda ham yetarli xomashyo bazasiga ega, oddiy shaftolining erta, o'rta va kechpishar navlari keng ekiladi.

3. Xalq tabobatida keng tarqalgan shaftoli barglarining farmakologik faolligi, oziq-ovqat uchun parhez qo'shimchalarining bir qismi sifatida foydalanish mumkinligi tasdiqlangan.

4. Respublikamizda shaftoli barglaridan ekstraktlar tayyorlash uchun me'yoriy hujjatlar mavjud emas, shuning uchun zamonaviy dorixonaning dolzarb vazifalaridan biri xom ashyo sifat ko'rsatkichlarini standartlashtirish va ishlab chiqishni amalga oshirishdir.

5. Shaftoli barglarini farmakologik faolligi va boy kimyoviy tarkibi asosida yangi dorivor mahsulotlarni yaratish istiqboliga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norbuvaevna A. R. et al. Ecological and hygienic application of the accumulation of toxic substances in soil and food products under the influence of agricultural factors //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 836-840.
2. Norbuvaevna A. R., Nurmuminovna G. G., Rukhsora M. HYGIENIC ASSESSMENT OF THE EFFECT OF NITRATES ON HUMAN HEALTH //Archive of Conferences. – 2021. – C. 24-26.
3. Botirov, X. F., & Abdumuminova, R. N. (2013). Winter green manures and peach yields./The text of the materials of the scientific-practical conference" of UzBU and Veterinarian Research Institute factors of development, yield and quality improvement of intensive garden vineyards in the Republic"(12-13 may 2013).).
4. Abdumuminova, R. N. (2013). Environmental factors and peach yield./Materials of the scientific-practical conference devoted to the" Year of prosperity" of professors and teachers on the topic" science achievements and prospects of agrarian sphere"(10-11 April 2013).)- Part I. Samarkand, Samarkand State Agricultural Institute, 57-53.
5. Narbuvayevna, A. R. N., Murodulloyevna, Q. L., & Abduraxmanovna, U. N. (2022). Environmentally friendly product is a Pledge of our health!. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 254-258.
6. Norbuvaevna, A. R., Ergashevna, K. D., Baxramovna, M. M., & Shomuratovna, B. R. (2021). Ecological and hygienic application of the accumulation of toxic substances in soil and food products under the influence of agricultural factors. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 836-840.
7. Abdumuminova, R. N. (2016). Effective use of Natural Resources and techniques factors in gardening. Scientific application" Agro science" of the Journal of Agriculture of Uzbekistan.- Tashkent, 6, 42-43.
8. Shaw B, Nagy C, Fountain MT. Organic Control Strategies for Use in IPM of Invertebrate Pests in Apple and Pear Orchards. Insects. 2021;12(12).
9. Narbuvaevna AR, Karimovich BZ, Mahramovna MM. Improving Food Safety and Improving the Fundamentals of Reducing the Negative Effects on The Environment. Eurasian Research Bulletin. 2022;5:41-6.
10. Abdumuminova, R. N. (2017). Requirements of peach to external environmental factors. Journal of Agriculture of Uzbekistan.-Tashkent, 8, 40.
11. Norbuvaevna, A. R., Nurmuminovna, G. G., & Rukhsora, M. (2021, August). HYGIENIC ASSESSMENT OF THE EFFECT OF NITRATES ON HUMAN HEALTH. In Archive of Conferences (pp. 24-26).
12. Abdumuminova, R. N., Sh, B. R., & Bulyaev, Z. K. (2021). On The Importance Of The Human Body, Nitrates. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(04), 150-153.



13. Eshnazarovich TB, Norbuvaevna AR, Nurmuminovna GG. RESEARCH OF ECOLOGICAL AND HYGIENE ASPECTS OF AGROFAKTORS AFFECTING HUMAN HEALTH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2021;2(08):7-11
14. Mamurova G.N. Makhmudov K.Kh., Abdumuminova R.N., Mukhitdinov Sh.M. Study of environmental and hygienic aspects of soil pollution with heavy metals PROBLEMS OF BIOLOGY AND MEDICINE 2023/2 142 № 1
15. Тухтаров, Б. Э., Абдумуминова, Р. Н., & Гаппарова, Г. Н. (2021). ИНСОН САЛОМАТЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ АГРОФАКТОРЛАРНИНГ ЭКОЛОГО-ГИГИЕНИК ЖИХАТЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ. *Scientific progress*, 2(4), 80-86.
16. Тухтаров, Б., Абдумуминова, Р., Наимова, З., Хакимова, Х., & Каримов, А. (2024). Эколого-гигиеническая оценка загрязнения почв тяжелыми металлами и разработка мероприятий по его улучшению. *Каталог монографий*, 1(1), 2-110. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/monographs/article/view/27813>
17. Abdumuminova R.N., Tursunqulova S.T., & O'tayev B.J. (2024). SHAFTOLINING DORIVOR XUSUSIYATALARINI TADQIQ ETISH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10500696>
18. Abdumuminova R.N., & Annaqulov S. A. Xasanova G. A. (2024). BOLALAR SALOMATLIK HOLATIGA MAKTAB JIHOZLARINING TAЪSIRINI GIGIYENIK BAHOLASH. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10500703>
19. R.N. Abdumo'minova, G. A.Vafaxonova, & Y. M.Shakarboyeva. (2024). SHARQIY ZIRABULOQ AHOLISI HUDUDLARIDAGI OCHIQ SUV HAVZALARINING SANITAR-GELMINTOLOGIK HOLATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10500719>
20. Abdumuminova R.N., Ismoilov Zoxid Yo'ldashevich Isayev G'ulom Bobonazarovich, & Jalolova Shoxida. (2024). ONTOGENESIS. DEVELOPMENT OF SKULL BONES. *UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, 2(9), 81-86. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/mc/article/view/2593>